

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti



Sharqshunoslik. Востоковедение. Oriental Studies

SHARQSHUNOSLIK
ВОСТОКОВЕДЕНИЕ
ORIENTAL STUDIES

Jurnal websayti:

<https://orientalstudies.uz/index.php/os>**HINDISTONDA MILLIY OZODLIK UCHUN KURASH VA ADABIY XAYOT***Muxibova Ulfatxon**Professor,**Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti**Toshkent, O'zbekiston**Email: ulfatmuhib8@mail.ru***MAQOLA HAQIDA**

Kalit soʻzlar: inqilob, ta'limot, ozodlik, taraqqiyparvar, mustaqillik, mustamlakchilik, tajribasizlik, dohiy, gandizm, birlashish, rojalar, tarqoqlik.

Annotatsiya: Ushbu maqola hind xalqining buyuk o'g'loni, vatan mustaqilligi uchun kurash dohiysi bo'lgan Maxatma Gandi tavalludining 150-yilligi, Hindiston mustaqilligi hamda O'zbek hindshunosligining 75 yilligiga bag'ishlanadi. Maqolada ingliz mustamlakachilari tomonidan Hindistonning bosib olinishi va unga qarshi hind halqining ko'p yillik kurashlari, o'zini o'zi boshqaruvchi xalq davlatini barpo etish kabi g'oyalar, va nixoyat M.Gandi boshchiligida Hindistonning inglizlardan ozod etilishi, ozodlik uchun kurashlarning adabiy jarayonga ta'siri natijasida xalq boshiga tushgan azob uqubatlarni o'zida aks ettirgan badiiy asarlar va ularning muallifi bo'lgan Yashpal, Vishnu Prabhakar, Subxadra Kumari Chauhan, Premchand, Krishan Chandar kabi adiblar haqida mulohazalar bildiriladi.

NATIONAL FREEDOM STRUGGLE AND LITERARY LIFE IN INDIA*Muhibova Ulfatkhan**Professor,**Tashkent State University of Oriental Studies**Tashkent, Uzbekistan***ABOUT ARTICLE**

Key words: revolution, doctrine, freedom, progressive, independence, colonialism, inexperience, genius, Gandhism, unification, rajas, disunity.

Abstract: This article is dedicated to the 150th anniversary of the birth of Mahatma Gandhi, the great son of the Indian people, the genius of the struggle for the independence of the country, the 75th anniversary of the independence of India and Uzbek Indology. The article examines the issues of the conquest of India by British colonialists, where the features of the long-term anti-colonial struggle of the Indian people for the creation of a self-governing national state are highlighted. Particular attention is paid to the influence of the struggle for freedom under the leadership of Mahatma Gandhi on the literary process of India, analysis of works of art that reveal the disasters and suffering that befell the common people, such writers as Yashpal, Vishnu Prabhakar, Subhadra Kumari Chauhan, Premchand, Krishan Chandar.

БОРЬБА ЗА НАЦИОНАЛЬНУЮ СВОБОДУ И ЛИТЕРАТУРНАЯ ЖИЗНЬ В ИНДИИ

Муhibaova Ульфатхан
Профессор,

Ташкентский государственный университет востоковедения
Ташкент, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: революция, доктрина, свобода, прогрессив, независимость, колониализм, неопытность, гений, гандизм, объединение, раджас, разобщенность.

Аннотация: Данная статья посвящена 150-летию со дня рождения Махатмы Ганди, великого сына индийского народа, гения борьбы за независимость страны, 75-летию независимости Индии и узбекской индологии. В статье рассматриваются вопросы завоевания Индии британскими колонизаторами, где выделяются особенности антиколониальной многолетней борьбы индийского народа за создание самоуправляющегося национального государства. Особое внимание уделено влиянию борьбы за свободу под руководством Махатмы Ганди на литературный процесс Индии, анализу художественных произведений, раскрывающих бедствия и страдания, выпавших на долю простого народа, таких писателей как Яшпал, Вишну Прабхакар, Субхадра Кумари Чаухан, Премчанд, Кришан Чандар.

KIRISH

Hind halqi asrlar davomida o'z yerini chet el bosqinchilaridan himoya kilib kelgan. XX asr o'rtalarigacha Angliya mustamlakasi bo'lgan Hindiston 1947-yilda Mahatma Gandi boshchilida inglizlardan vatanni ozod etib milliy mustaqillikka erishdi. 2019-yilda hind halqining milliy doxiysi Mahatma Gandi tavalludining 150-yilligi hamda 2022-yili Hindiston mustaqilligining 75 yillik sanasi Hindiston xukumati va hind halqi tomonidan nafakat Hindiston xududida balki boshqa mamlakatlar miqyosida ham turli madaniy tadbirlar, ilmiy anjumanlar, seminarlar shaklida keng nishonlandi. Jumladan, 2019-yil 28-sentyabrda Toshkent davlat sharqshunoslik universitetida ulug' qalb egasi Maxatma Gandi tavalludining 150-yilligi Hindiston elchixonasi, L.B.Shastri nomli Hind Madaniyati markazi, Hindistondan tashrif buyurgan gandishunos olimlar, Shanxay xamkorlik tashkilotining O'zbekistondagi Xalq diplomatiyasi vakillari hamda universitetning hindshunos olimlari bilan hamkorlikda Maxatma Gandining xayoti va faoliyatiga bag'ishlangan seminar tashkil etildi. Ushbu seminar da universitetning Hind falsafasi bo'yicha mutaxassis Sherdor Pulatovning "Gandining «Mening xayotim» kitobidagi falsafiy karashlari» nomli Gandi tavalludining 150-yilligiga bag'ishlab tayyorlagan monografiyasining takdimoti xam o'tkazildi. Shuningdek, Hindiston mustaqilligining 75 yilligi ham Hindiston xukumati tomonidan maxsus ta'asis etilgan bir yillik «Azadika amrit maxa utsav» ("Ozodlikning o'lmas tantanasi") nomli dastur asosida keng miqyosda nishonlandi. Ushbu dastur Hindistonning mustaqil taraqqiyot davrida har bir sohasida erishgan yutuqlari bilan bog'lagan holda tantanali nishonlandi va ushbu bir yillik bayram joriy yilning 15-avgustida yakuniga yetkazildi. Hind halqining mustaqillik uchun kurashi, aslida, inglizlar Hindistonga ilk qadam quyib, uni o'z mustamlakasiga aylantirgan 19 asrlardayoq boshlangan edi.

NATIJALAR

Ingliz xukumati, aslida, Hindistonni o'rganish maqsadida bu xududlarga kirib kelgan va sekin-asta bu go'zal diyorning tabiatiga, go'zalligiga, boy tabiiy konlariga maftun bo'lib, Ost-Indiya kompaniyasi orqali Hindistonni o'z mustamlakalariga aylantirib olgan. Bundan norozi bo'lgan **maxalliy hind feodallari ularga qarshilik** ko'rsata boshlaganlar. O'sha davrdagi davlat maharajalari, jumladan, bengal maharajasi Siroj-ud-Davla, Maratx davlati rojasi Kana Firnavs, Maysur xukmdori Xaydar Alilar barchani inglizlarga qarshi kurashga **birlashtirish uchun harakat qilganlar**. Lekin, inglizlar ayyorlik bilan maharajalarning birlashishiga yo'l qo'ymaslik uchun ular o'rtasiga raxna solib turar edilar. 1849-yilga kelib Hindiston ingliz xukumatining mustamlakasiga aylanadi. Shu yili inglizlar oxirgi mustaqil davlat Panjobni ham bosib oladilar. Shundan keyin inglizlar mamlakatni ochiqdan ochiq talon taroj qila boshladilar. Bu, albatta, xalq orasida norozilik, uning ketidan qo'zg'olonlar kelib chiqishiga sabab bo'lar edi.

MUHOKAMA

1857-1859-yillardan bo'lib o'tgan qo'zg'olon eng yirik qo'zg'olonlardan biri edi. Bu kurash haqiqatni olganda milliy uyg'onish qo'zg'oloni edi. Biroq, bu qo'zg'olonlar hind halqining tarqoqligi, tajribasizligi, rahbarlarning birlasha olmasligi, ba'zi feodallarning inglizlarga sotilishi natijasida mag'lubiyatga uchrar edi, shuningdek, yer egalari ning ko'pchiligi inglizlar bilan ittifoq tuzishi natijasida qo'zg'olonlarning otryadlari tarqalib ketardi.

Biroq inglizlarning Hindistonning tarqoqligidan ustalik bilan foydalanishi natijasida yuz berayetgan magʻlubiyatlarni toʻla magʻlubiyat deb aytish mutlaqo notoʻgʻri boʻlgan boʻlar edi. Bu kurash magʻlubiyatga uchragan boʻlsada, Hindiston halqlari tarixida juda katta iz qoldirgan.

Har bir halqning adabiyoti oʻz mamlakati tarixi bilan chambarchas bogʻliq boʻlganidek, Hindiston halqi adabiyotini ham halq tarixidan ajralgan holda tasavvur etib boʻlmaydi. Milliy ozodlik uchun kurash davrida hind halqi orasidan yetishib chiqqan vatanparvar, halqchil xamda taraqqiyparvar yozuvchi va shoirlar oʻz qalamlarini halq azob uqubatlarini, qiyinchiliklarini, ikki yoqlama zulm ostida ezilyotganligini, zulmkorlarning jirkanch yuzlarini adabiyotda aks ettirishga qaratganlar va buni oʻzlarining muqaddas burchlari deb hisoblaganlar. Burjua sinfiga xizmat qiluvchi reaksiyon ijodkorlar qatorida sofdil, halq uchun, vatan uchun xizmat qiladigan ijodkorlar ham bu davrda, albatta, kam emas edi.

Mustamlakachilar taraqqiyparvar adabiyotchilarning oʻz vataniga boʻlgan muhabbatini chet ellik ekspluatatorlarga boʻlgan hind halqining nafratini, demokratik adabiyotning rivojlanishini toʻxtatib qoʻya olmadilar, aksincha, hind halqi ongida oʻzlariga nisbatan boʻlgan nafrat oʻtini alanga oldirib, milliy-ozodlik harakatlariga aylantirib yubordilar.

Ingliz mustamlakachilariga qarshi kaxr-gʻazab va nafrat halq ogʻzaki ijodida ham oʻz aksini topgan. Halq oʻrtasida ogʻizdan-ogʻizga koʻchib yuruvchi mana bunday qoʻshiklardan birida shunday deb kuylanadi:

Zulmat keltirding qora bulutli
Bizga sen uzoq Inglistondan!
Yoʻqol yovuzlar, ket, yoʻqol bu yerdan,
Ket farangilar, joʻna yurtimdan!

XIX asr oxiri XX asrning boshlariga kelib milliy-ozodlik harakati butun mamlakat boʻylab ommaviy tus ola boshladi. Bu davrga kelib mamlakatda imperializm tez rivojlandi, milliy-ozodlik harakatidan koʻrqan inglizlar bunga ekspluatatsiyani, zulmni kuchaytirish bilan javob berdilar.

Mamlakatda kapitalizm tez rivojlana borishi bilan Hindiston jamiyatida ikki bir-biriga qarama-qarshi boʻlgan sinflar, yaʼni milliy burjuaziya va ishchilar sinfi shakllana boshladi. Bu sinflar milliy ozodlik harakatiga oʻz taʼsirlarini koʻrsatib, bu harakatda yangi davr boshlanishiga sababchi boʻldilar. Bu davr burjuaziyasi ishchilarning inqilobiy chiqishiga, albatta, qarshi edilar, shuning uchun ingliz xukmdorlari bilan kelishib ish tutishga majbur edilar. Lekin, kapitalizm rivojlana borgan sari milliy burjuaziya ham oʻz tobeligini koʻproq seza boshladi.

Shunday kilib mustaqillik uchun kurashga milliy burjuaziyaning xam koʻshilish davri yetib keldi.

XX asr birinchi yarmi Hindistonda milliy-ozodlik kurashining yanada avj olib borishi bilan karakterlanadi. Bunga Rossiyada 1905-1909-yillarda boʻlib oʻtgan burjua inqilobi va 1917-yilgi Oktyabr inqilobi katta taʼsir koʻrsatdi. 1905-1909-yillarda avj olgan milliy-ozodlik harakatida Bengal, Bombay, Panjob va Hindistonning Janubi-gʻarbiy xududlari kurashning markazi boʻldi. Ozodlik harakatida ishchilar bilan birga dexqonlar xam faol ishtirok etdilar. Mustaqillik uchun kurashning xammasi “Hindiston - hindlar uchun”, “Svadeshi” (oʻz milliy sanoatiga ega boʻlish) va svaraj (oʻz-oʻzini boshqarish) shiorlari ostida oʻtgan, lekin shuni xam aytish lozimki, bu kurashlarda xali aniq bir raxbar, kurash tajribasi yetarli emas edi. Shu sabab qoʻzgʻolonlar magʻlubiyatga uchrar edi.

Hind halqi xayotida yuz berayotgan muhim o'zgarishlar yozuvchilar e'tiborini ijtimoiy masalalarga chorlay boshladi. Shu davrning ko'pgina yozuvchilari ayni shu masalalarga o'z ijodlarini bag'ishladilar. Bunda halq tarixiga murojaat qilish, o'sha davr adabiyotidan syujetlar tanlab olib ijod qilish davr adabiyotining asosiy xususiyatlaridan bo'ldi. Jumladan, XX asrning 20-yillarida vujudga kelgan Chxayavad oqimining vakili Nirala milliy-ozodlik harakati barq urib ko'tarilgan bir paytda "Chxatrapati Shivaji" (Ulug' Shiva xayoti, 1922-y.) poemasini yaratgan. Bu asarda garchi 17 asrda bo'lib o'tgan vokea, ya'ni Boburiy shohlardan Aurangzebga sotilib ketgan maharaj Jay Sinxga Maratx halqining dohiysi Shivajining qilgan murojaati tasvirlangan bo'lsada, uning mazmuni aslida bugungi ozodlik kurashlari bilan hamohang asar sifatida baxolanadi.

Hindistonning tarakkiy parvar yozuvchilari adabiyotni voqelikka yaqinlashtirishga harakat qildilar. Ularning asarlarida asoratga, qullikka va zulmga qarshi norozilik yana xam kuchliroq jarangladi, hind halqining iqtisodiy, siyosiy va madaniy xayoti ularni xayajonga sola boshladi. Ular o'z ijodlari bilan halq diqqatini xuquqsizlikka qaratibgina qolmasdan balki ozodlikka erishish uchun Vatan oldidagi o'z burchlarini bajarishga chaqirdilar. Hind adabiyotida realizm asoschisi bo'lgan Premchand shunday degan edi: «Biz shunday adabiyot yaratishimiz kerakki, unda chuqur mazmundorlik, erksevarlik, nafosatni xis eta bilish, yaratuvchanlik ruhi, vokelikni real talkin etish xukmron bo'lsin. Qalbimizga u kuch-quvvat baxsh etsin, fazoni isyonkorlik va tug'yon nafasi bilan chulg'ab olsin. Adabiyot bizni allalashi kerak emas, chunki uyqu xozirgi kunda biz uchun o'lim bilan tengdir».

Birinchi jahon urushidan keyin Hindistonda Moxandas Karamchand Gandi boshchiligida milliy ozodlik harakatining yangi davri boshlandi. Gandining mustamlakachilarga qarshi kurashishda yaratgan yangi nazariyalari omma orasida keng tarqala boshladi. Gandi ilgari surgan kurash uslubi inglizlar bilan xamkorlik qilmaslik, ingliz xukumati tomonidan berilgan unvonlardan voz kechish, qonun chiqaruvchi organlarga, sudga, davlat organlariga bo'ladigan saylovlarga, ingliz mollariga baykot e'lon qilishdan iborat edi.

Gandi halqni mustamlakachilarga qarshi qo'zg'atar ekan bu kurashda ommani yovuzlikka kuch bilan qarshilik ko'rsatmaslikka chaqirish edi. Gandi olib borayotgan kurashlar ham "svadeshi" va "svaraj" shiorlari ostida o'tgan. U mustamlakachilikka qarshi kurashda keng halq ommasining birgalikda harakati tarafdori edi. Gandi o'z ta'limotlari bilan halq obro'sini qozonib, o'z davrida Hindiston Milliy Kongressini ommaviy partiyaga aylantira oldi.

E.N. Komarov va A.D. Litmanlar o'z tadqiqotlarida gandizmga baho berib shunday deydilar: «Hindistonda xech qaysi siyosiy va g'oyaviy ta'limot, hech bir partiya gandizmdek ommaviy ta'sir ko'rsatish va tashkilotchilik kuchiga ega bo'lmagan».

Ko'pchilik hind olimlari XX asrning 20-30- yillarini Gandi davri deb atashlari bejiz emas. Ayniqsa, Hindiston Milliy Kongressining bu davrdagi faoliyati Gandi faoliyati bilan chambarchas bog'liqdir. Jumladan, O.V. Martishin shunday deb yozadi: «Gandi Milliy Kongressni halq ommasi bilan bog'lab turuvchi yagona raxbari edi. U millionlab hind kishilari uchun Milliy Kongress va ozodlik kurashining ifodasi bo'lib kelgan».

Gandizmning adabiy jarayonga ta'siri masalasi bo'yicha hind tanqidchilari o'rtasida turli fikrlar mavjud. Ba'zilar Gandi ta'limoti adabiyotga hech qanaday ta'sir ko'rsatmagan va, umuman, adabiyotga aloqasi bo'lmagan, deb xisoblaydilar. Jumladan, oriy adabiyotchisi Mayadxari Mansinx shuni tasdiklaydiki, gandizm umuman olganda adabiyot uchun samarasiz bo'ldi va bironta ham arzigulik asar yaratilishiga asos bo'la olmadi deydi. S.N Bxattachariya esa adabiyotning gandizm ta'siri ostida bo'lgan davrini "hind adabiyotining oltin davri", deb baxolaydi.

Albatta, Gandi ta'limotlari xamma yozuvchilar uchun ham ijod manbai bo'lmagan. Lekin, gandizmning halq orasida keng tarqalganligi milliy-ozodlik harakatining rivojiga yetarli darajada ta'sir ko'rsatgan. Shu sabab Hindistonning taraqqiyparvar yozuvchilari o'z asarlarini yaratishda gandizmdan ijod manbai sifatida foydalanishlar. Bunday adiblardan ko'plarining nomini sanab o'tish mumkin – Premchand, Maytxili Sharan Gupta, Makxanlal Chaturvedi, Jayshankar Prasad, Sumitranandan Pant, Yashpal, Subxadra Kumari Chauhan, Jaynyendra Kumar, Harivanshray Bachchan, Vishnu Prabhakar va boshkalar.

Sanab o'tilgan adiblarning ijodiga gandizmning ta'siri, tabiiyki, bir xil bo'lmagan. Masalan, Premchand, M.Chaturvedi, M.Gupta, S.K.Chauhan, J.Prasad, S.Pant kabilar Gandining kuch ishlatmaslik ta'limotini ijtimoiy zulmga qarshi kurashning yagona yo'li deb hisoblab, gandizmi targ'ib qilishni lozim topganlar. Lekin, Bxagavatcharan Varma, Udayshankar Bhatta, Yashpalga o'xshash yozuvchi va shoirlar gandizmi o'sha o'z davrida ijtimoiy xayotga nisbatan to'g'ri baholab, bu usulni ozodlikka erishish uchun yagona yo'l, deb tushunmaganlar.

Ular, xattoki, o'z asarlarida Gandi ta'limotining salbiy tomonlarini ham ochib beradilar. Chunki, bu ta'limotlar ko'pgina ijobiy natijalarga olib kelish bilan bir katorda milliy-ozodlik harakatini ko'pincha boshi berk ko'chaga kiritib qo'yar edi. Halq faqat namoyishga chiqish, ish tashlash, o'qishni tashlash, hamkorlik qilmaslik, kuch ishlatmaslik yo'li bilan Mustaqillikka erisha olmasligini asta-sekin tushuna bordilar. Uchinchi bir fikr tarafdorlari (masalan, S.T.Nirala) esa Gandining ayrim g'oyalariga qarshi chiqqan edilar. Shoiraning "Ulug Shiva xati" (1922) she'rida milliy zulmga qarshi ommaviy qo'lga qurol olib kurashishga chaqiriq jaranglaydi.

Dastlabki ijodiy faoliyatida Gandi ta'sirida bo'lgan ayrim yozuvchilar (Premchand, V.Prabhakar) keyinchalik ikkilana boshlaganlar va mamlakat xayotidagi tajribalar asosida Gandining kuch ishlatmaslik ta'limotini inkor qiladilar.

Gandizmning ta'siri chuqurroq bo'lgan yozuvchilardan biri Premchand xisoblanadi. Uning asarlarida dehqonlar xayoti, ularning yangi teng mehnatga asoslangan jamiyat haqidagi orzulari, Gandining sinfiy totuvlik nazariyalari o'z aksini topgan.

Lekin, Gandining 30-yillar ijodini taxlil qilsak, bu faoliyati bizga butunlay boshqa natijalarni keltirib chiqaradi. Bu davrda u milliy zulmning xaqiqiy asosini, gandizmning abstrakt goyalarning natijasizligini tushuna boshlab, xususiy mulk mavjud ekan, halq hech qachon ozodlikka erisha olmaydi, degan xulosaga keladi.

Gandining kuch ishlatmaslik va ma'naviy jixatdan o'z-o'zini kamolotga yetkazish ta'limoti J.Prasad va S.Pant asarlarida aks ettirilgan. Gandi ta'limoti ketidan borgan Pant xamma kiyinchiliklarni o'z-o'zini kamolotga yetkazish bilangina yo'q qilish mumkin, deb hisoblagan.

Gandining adabiyotga ta'sirini belgilashda gandizmi g'oyaviy qurol qilib olmagan yozuvchilarning gandizmga munosabatini o'rganib chiqish diqqatga sazovordir. Ular o'z asarlarida konkret tarixiy sharoitda, hind halqi xayotining ma'lum bir etapida Gandi ta'limotining ta'sirini to'g'ri baholashga harakat qilganlar.

Hindiston halqi ko'p millatli bo'lganligi, ularning o'rtasidai diniy e'tiqodning xam bir xil emasligi inglizlar uchun milliy-ozodlik kurashini pasaytirishda juda qo'l kelgan. Ular asrlar davomida qon-qarindosh bo'lib kelgan halqni diniy e'tiqod asosida hindu musulmon toifasiga ajratib, ular orasiga raxna solganlar. Natijada ozodlik uchun kurashayotgan halq o'rtasida o'zaro janjallar kelib chiqq boshlaydi. Bunday sharoitda inglizlarga Hindistonda mustaxkamroq joylashib olish imkonini berdi va ularning asl niyati xam shu edi. Sharoitdan ustalik bilan foydalangan inglizlar 1906-yili Musulmon Ligasi partiyasini tashkil qiladilar. Bu partiyaning

asosiy maqsadi guyoki “Hindular siquvida qolgan musulmonlarni qutqarish”dan iborat edi. Bu partiyaga qarama-qarshi ravishda “Hindu Maxasabxa” partiyasi xam inglizlar boshchiligida tashkil etildi. Shunday kilib mustamlakachilar doimo aka-ukadek yashab kelgan hind halqini bir biri bilan urishtirib qo‘yib, qilgan ishlaridan mamnun xolda xukumatni bemalol boshqarish uchun o‘zlariga sharoit yaratib olganlar.

Ro‘y berayotgan bu voqealar, inglizlar tomonidan hind halqi o‘rtasiga solingan raxna va buning natijasida kelib chiqayotgan to‘qnashuvlar hind halqi milliy-ozodlik harakatining doxiysi Gandini qattiq xayajonga sola boshlaydi. Sun‘iy ravishda chetdan kiritilgan bu ixtilof ozodlik kurashini so‘ndirish maqsadida qilinganini Gandi juda yaxshi tushunar edi. Shu sabab u xam doimo ta‘kidlar ediki, Mustaqillik uchun kurashda ikkala halqning birgalikda harakatigina yaxshi natijaga olib kelishi mumkin, “hindular va musulmonlarning birligi svaraj demakdir”. «Gandi janubiy Afrikada yurgan chog‘laridayoq hindular va musulmonlar o‘rtasida o‘zaro chin ishonch mavjud emasligini, lekin mamlakat halqining Mustaqillik va ozodlik kurashida g‘alaba qozonishi uchun ularning birlashishi xayotiy zaruriyat ekanini yaxshi anglar edi».

Gandi hindu va musulmonlarni birlashtirish uchun qo‘lidan kelgan barcha ishlarni qilgan. Xattoki, musulmonlarning xalifat harakatida ham ishtirok etdi. Bu harakatning raxbari Mavloni Abul Kalam Ozod xam xalifat harakatida axolining musulmon bo‘lgan kismini ham ishtirok etishini maqsadga muvofik deb xisobladi. Ikkala raxbar boshchiligida qilingan harakatlar natijasida hindular xalifat harakatida, musulmonlar esa o‘z navbatida Gandi boshchiligidagi xamkorlik kilmaslik harakatida ishtirok eta boshladilar.

Lekin, baxtga qarshi axolining hamma qismi ham ozodlik kurashda birlashish zarurligini tushunib yetmasdilar. Shu sababli hindu – musulmonlar kyelishmovchiligi xalifat harakati susayishi bilan yana avj olib ketdi. Ayrim musulmonlar, jumladan Aligarx musulmonlari bu harakatda hindularning ishtirok etishiga qarshi chiqdilar va Gandining xamkorlik qilmaslik harakatida qatnashishdan bosh tortdilar, chunki ular ham o‘zlaricha hindulardan xoli ravishda mustaqil bo‘lish uchun kurash olib borayotgan edilar. Shunday kilib, yana to‘qnashuvlar boshlanib ketdi. Bu davrdagi axvolni aniqroq tasavvur qilish uchun ba‘zi qonli to‘qnashuvlarni misol keltirish mumkin. Masalan, 1923-yilning may oyida Kalkutada bo‘lib o‘tgan to‘qnashuv. Bu to‘qnashuvning kelib chiqishiga asosiy sabab musulmonlar namoz o‘kiyotgan vaktlarida hindular machit oldidan musika chalib o‘tadilar. Bu to‘qnashuv bir necha kun davom etgan va natijada bir kancha kishilar xalok bo‘lganlar.

Hind adabiyotining tarakkiyparvar adiblari o‘z mamlakatlarida yuz berayotgan voqealarga befark karay olmadilar. Ular ijodini hindu va musulmonlarni birlashtirishga chakiruvchi asarlar yaratishga va shu asarlar orkali mavjud ixtilofning inglizlar tomonidan kiritilginini, bekorga qon to‘kilayotganligi, o‘zaro janjallarni yig‘ishtirib, bir-birlariga qarshi kurashmasdan, aksincha, birlashib turib ingliz mustamlakachilariga qarshi kurashish zarurligini, fakat shu yul bilangina Mustaqillikka erishish mumkinligini halq ongiga yetkazish harakat qildilar.

Hind adabiyotining tarakkikiyparvar yozuvchilari shunday asarlar yaratdilarki, bu asarlarda ingliz xukmdorlariga nisbatan nafrat, xalq azob uqubatlariga hamnafaslik, hind-musulmon birligiga chaqiriq ohanglari jarangladi. Jumladan, Premchandning 1928-1933-yillarda yozgan “kurash yo‘li” to‘plamiga kiritilgan hikoyalari mamlakatda jiddiy tus olgan siyosiy kurashni, mehnatkashlar ommasining sinfiy ongi qanday taraqqiy eta borgani va ulardagi vatanparvarlik va mustamlaka zulmiga qarshi kurash, g‘azab tuyg‘ulari kuchayib borayotganini tasvirlashga bag‘ishlangan. Bu ixtilof kelib chiqishi bilan adabiyotda juda ko‘p asarlar maydonga chiqdiki, bu asarlarda bo‘linish natijasida sarson-sargardon bo‘lgan xalq azob uqubatlari

tasvirlangan. Yashpalning “Yolgʻon haqiqat”, Bxisham Sahnining “Mgla”, Abdulla Xuseynning “Yoʻqolgan avlodlar” nomli romanlari ayni shu boʻlinish masalasiga bagʻishlangan. Bxishat Saxni oʻz romanida zamondoshlariga murojaat qilib, bunday xatolarni qaytarmaslikka chaqiradi, chunki bunday vaqtda asosiy qurbonlik xalq boshiga tushadi, deydi. Bu xayotiy masala Krishan Chandar, Chandragupta, Vidyalankar, Vishnu Prabxakarlar ijodidan ham oʻrin olgan. Ch.Vidyalankarning “Yana bir hind tugʻildi”, V.Prabxakarning “Bir otaning farzandlari”, “Men yashayman” kabi hikoyalari hind-musulmon birligiga bagʻishlab yozilgan asarlar boʻlib, ularning asosiy maqsadi halq oʻrtasidagi diniy ixtilof mehnatkash xalq uchun begona ekanligi, hind xalqi asrlar davomida bir otaning farzandlaridek ahil, doʻst, inoq boʻlib, hamkorlikda yashab kelganligini va bundan keyin ham yashay olishligini isbotlab berish edi.

Ulugʻ oktyabr inqilobidan soʻng Hindistonda Rossiyada yuz bergan ishchi dehqonlar inqilobiga boʻlgan qiziqish ortib, hind xalqining ozodlik uchun kurashuvchilariga katta taʼsir oʻtkazdi. Va bu taʼsir asosida rus adiblari tomonidan yaratilgan inqilobiy mazmundagi asarlarning koʻpi hindi tiliga tarjima qilindi. Taraqqiyparvar hind yozuvchisi Roja Rao (1903 1995yy.) Gorkiy nomiga 1934-yilda yuborgan xatida “Sizning “Ona” romaningiz ijodimning shakllanishida muhim omillardan biri boʻldi”, - deb yozgan edi. Shuningdek, Premchandning 1921-yilda yozgan “Premashram” (“Sevgi makoni”) romanida dehqonlar oʻz suhbatida Rossiyada podshoh taxtdan agʻdarilganini va endi u yerda mamlakatni ishchi-dehqonlar hokimiyati boshqarayotganligi haqida bir-birlariga zavq bilan hikoya qilishlarini kuzatish mumkin.

Inqilobiy mazmundagi asarlar barcha janrlarda yaratila boshlandi. Xususan, tarixiy romanlar asoschisi Vrindavanlal Varma (1889 1972) oʻz romanlarida hind xalqining ozodlik, vatan mustaqilligi uchun kurashlarini realistik asosda tasvirlagan. Varma oʻz asarlari orqali xalqqa mustaqillikka faqat umumxalq kurashi orqaligina erishish mumkin, degan gʻoyani singdirishga harakat qilgan.

XULOSA

Adabiyotning ijtimoiy rolini oshirish, undan ilgʻor gʻoyalarni targʻib qilishda keng foydalanish uchun Hindistondagi hamma taraqqiyparvar yozuvchi va shoirlarni birlashtirish zarur boʻlib qoldi. Adabiy xayotda taraqqiyparvar yozuvchilarni butun Hindiston jamiyatini tuzish uchun ommaviy harakat boshlanib ketdi va 1936-yil aprel oyida Lakxnau shahrida Milliy Kongressning navbatdagi sessiyasida Hindiston taraqqiyparvar yozuvchilar jamiyati (XTYOJ) tashkil etildi hamda konferensiyaga raxbarlik qilish bir ovozdan Prem Chandga topshirildi. Konferensiyada uchta masala koʻrildi: birinchisi, turli milliy adabiyotlarni yagona milliy mustaqillik, ijtimoiy taraqqiyot yoʻlida birlashtirish; ikkinchi masala, jamiyat ustavini ishlab chiqish, uchinchi masala, tashkilotning chet mamlakatlar adabiy tashkilotlari bilan aloqasi.

Konferensiyada birinchi boʻlib Premchand soʻzga chiqdi va u Hindiston xalqlari adabiyotining bundan keyingi vazifalari, taraqqiyparvar yozuvchilar oldida turgan buyuk maqsadlar va shu maqsad yoʻlida olib boriladigan kurash haqida barafsil gapirib oʻtdi. Yozuvchilar jamiyatining tashkil topishi adabiyotning hamma janrlarida Premchand boshlab bergan realistik asarlarni koʻplab yaratilishiga olib keldi. Hindiston taraqqiyparvar yozuvchilar ittifoqining tashkil etilishi nafaqat milliy ozodlik uchun kurash harakatini kuchaytirdi, balki hind adabiyotida oʻz davrining dolzarb muammolarini aks ettirgan, obrazlari mohirona tasvirlangan, syujeti qiziqarli va badiiy vositalari betakror badiiy asarlarning yaratilishiga sabab boʻldi va bugungi akunda ular XX asr Hindiston xalqlari adabiyotining oltin merosi sifatida tan olinadi va hanuzgacha hind xalqi

tomonidan sevib mutolaa etiladi, shuningdek, ularning juda ko‘pi ko‘pgina sharq va g‘arb tillariga tarjima qilib chop etilgan, ko‘pgina filmlar va dramalar yaratilgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Vishnu Prabhakar. Sbyurasskazov “Diya gor”. Moskva, 1963.
2. Gandi. Mening xayotim. Toshkent, 2010.
3. Gandi M. Moya jizn. Moskva, 1978.
4. Yermakova S.N. Otrajeniye natsionalno osvoboditelnoy borbi v tvorchestve Chauhan. Tashkent, 1978.
5. Inostrannaya literatura. Jurnal. №6. Moskva, 1958.
6. Komarov E.N., Litman A.D. Mirovozzreniye Moxandas Karamchanda Gandi. Moskva, 1969.
7. Martishin O.V. Politicheskiye vzglyady M.K. Gandi. Moskva, 1970.
8. Sadjad Zaxir. Izbrannoye. Moskva, 1960.
9. Oripov U.M. Xo‘ja Axmad Abbos. Toshkent, 1960.